

MUHAMMAD ALIXON SHAXSIYATI YORITILGAN MANBALAR TAVSIFI

Nematullayeva Marjona Hikmatulla qizi

ToshDO‘TAU 1 bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696889>

Annotatsiya: Qo‘qon xoni Muhammad Alixonning shaxsiyati masalasi asrlar davomida bahsli masalalardan biri bo‘lib keladi. Mazkur tezisda XIX asrda Movarounnahrning siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan Muhammad Alixon shaxsiyati va faoliyati tarixiy manbalar asosida keng yoritiladi. Tadqiqotda asosan “Tarixi Shohruhiy”, “Ansob as-salotin va tavorix al-xavoqin”, “Muntaxab ut-tavorix” kabi zamonasining muhim yozma manbalariga tayangan holda Muhammad Alixonning siyosiy qarashlari, ma’naviy-ma’rifiy faoliyati, shaxsiy fazilatlar, hamda u boshchilik qilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahlil qilinadi. Muhammad Alixon Qo‘qon xonligi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaxs bo‘lib, uning hukmronligi davrida xonlikda ichki islohotlar, harbiy tuzumdagi o‘zgarishlar va tashqi siyosiy munosabatlar muhim bosqichga kirgan. Shu bilan birga, uning shaxsiyatiga oid tasvirlar nafaqat rasmiy tarixiy manbalarda, balki adabiy-tazkiraviy asarlarda ham o‘z aksini topgan. U haqidagi rivoyatlar va tasvirlar orqali o‘sha davr odob-axloq me’yorlari, shaxsiy tarbiya, boshqaruv kabi jihatlar ham o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida manbalarning tarixiy va shaxsiy jihatlari qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganilib, Muhammad Alixon shaxsining tarixiy obrazini yaratishga xizmat qiluvchi asosiy manbalar aniqlanadi. Ushbu tadqiqot Muhammad Alixon shaxsiyatini shaxsiyatini chuqur anglash, uning faoliyatiga turlicha yondashuvni shakllantirish va tarixiy manbalarning tanqidiy tahlil asosida qayta baholash imkonini beradi. Shuningdek, bu ish XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligida yuz bergan siyosiy jarayonlarni shaxs omili bilan bog‘liq holda tushunishga xizmat qiladi.

Kirish

Amir Umarxon va Nodirabegim o‘z davrining ziyoli insonlari bo‘lishgan. Qo‘qon xonligida siyosiy va madaniy hayotning bir qadar yuksalgan davri Amir Umarxon hukmronligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, uning rafiqasi Nodirabegim xonlikda adabiyot va san’at ahlining fidoyi homiysi sifatida alohida mavqega ega bo‘lgan. Ana shunday boy madaniy-ma’naviy muhitda ularning to‘ng‘ich farzandi Muhammad Alixon voyaga yetdi. U yoshligidan atrofidagi ijodiy va ilmiy muhit ta’sirida shakllanib bordi. Amir Umarxonning vafotidan so‘ng, 14 yoshli Muhammad Alixon taxtni egalladi. Niyozmuhammad Ho‘qandiyning¹ “Ibrat-ul havoqin” asari “Tarixi Shahruxiy” nomi bilan shuhrat topgan. Mazkur asar Qo‘qon xonlarining hayoti va faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun unda xonlikning oxirgi hukmdorlari Xudoyorxon va Nasriddinxonning avlodlari haqida ham shajaraviy ma’lumotlar keltiriladi. Asarda shunday ma’lumotlar keltiriladi:

“Tez jilovli va ho‘l zabonli qalamning oti, tezsur‘at xomaning uloqi varaqlik maydonida yo‘rtib chiqib yozadiki, Umarxon asosi zaif va ommaga oshno-yu xoslarga begona bo‘lgan bu taxtgoh bilan vidolashganida, latif jasaki va zarofatli vujudini bir kechayu kunduz haramda maxfiy saqlab, barcha vazirlar va nadimlar, sarkardalar yig‘ilishib olib, Furqon kitobini o‘rtaga qo‘yib ahdu paymon qilishib, qasam ichdilar va Muhammad Alixonni o‘n to‘rt yoshida podshohlik ramzi bo‘lmish oq kigizga solib, otasi o‘rniga xon ko‘tardilar. Yusuf mingboshi – tog‘lik Muhammadali xonning qaynotasi, sarkardalar va amirlarning sarasi va yetakchisi edi.”

Muhammad Alixon hali yosh bo‘lganligi tufayli taxtni onasi va o‘ziga yaqin davlat

¹ NiyozMuhammad Xo‘qandiy. 2010. Ibrat-ul-xavoqin. Toshkent: Turon zamin ziyo nashriyoti

arboblari yordamida boshqara boshlaydi. Ushbu asarda ham Muhammad Alixonning keng ko'lamli yurishlari tasvirlanadi, bu yurishlar natijasida Qo'qon xonligining hududini anchagina kengaytirib oladi va "G'oziy"² unvoniga sazovor bo'ladi. Bu orada Buxoro amiriga bu voqealardan xabar topadi va elchi jo'natadi:

"Muhammadalixon g'oziy Xo'janddan chiqib Toshqo'rg'onga yetganida, Buxoro amiri elchisi xon yo'liga chiqib shunday dedi: "Ey xon, qayerga bormoqchisiz? Qayerga borsangiz ham amir bilan jang qilishingiz kerak bo'ladi. Hali ham vaqtning g'animat deb bilib, borib amir bilan uchrashing. Viloyatni o'zingizga qaytarib beradi, mehribonchilik va lutf ila sizni qaytaradi". Oqibat ul-amr maslahat shunday bo'ldi-ki, Muhammadalixon o'z o'g'li Muhammadaminxonni katta tortiq va hadyalar bilan amir huzuriga yuborib, o'zi Xo'qand sari ravona bo'ladigan bo'ldi".

Shunda ham Buxoro amiri Nasrulloxon Muhammad Alixon haqida kurakda turmaydigan haqoratlarni tarqatadi va Qo'qon xonligiga bostirib kiradi. Muhammad Alixon, uning onasi Nodirabegim, Muhammad Alixonning homilador xotini va hattoki yosh go'daklarni ham o'ldiradi:

"Amir ommaning shovqin-suroni bilan shaharga doxil bo'ldi. Amir buyrug'iga binoan shaharni to'rt soat talon-taroj qildilar. Masjidlarda kigiz va joynamoz, madrasalarda kitob qolmadi. Barcha narsalar g'orat bo'ldi. Erkag-u ayolni yap-yalang'och qilib qo'yishdi. Bu mulkning ba'zi fuqarosi uylar ichida, bog'lar va xilvat joylarida mang'itlarni itdek o'ldirib, jasadlarini zahbur va chuqurlarga tashlardilar. To'rt soatdan so'ng amir buyrug'i bilan mang'itlar shahar talon-tarojidan qo'l tortdilar. Muhammadalixonning onasini bir nechta ayol bilan birga

qatlga yetkazdilar. Muhammadalixon davlatgohlaridan ham bir nechtasi, uning o'n to'rt yoshli o'g'li Muhammadaminxon ham qatl etildi".³

Tarixda "qassob amir" nomi bilan qolgan amir Nasrulloxon nihoyatda kuchli davlat arbobi, siyosiy vakil edi. Lekin, qay darajada aqlli va bilimli bo'lmasin, bu uning Qo'qonda qilgan qonxo'rliklarini oqlamaydi.

"Muntaxab ut-tavorih" asari⁴ muallifi Hakimxon To'ra Muhammad Alixon shaxsiyatini ko'proq tanqidiy nuqtai nazardan yoritib, tarixiy obraz sifatida salbiy sifatlar bilan tasvirlaydi. Bunga esa Muhammad Alixon bilan o'rtalaridagi mojaro sabab deyiladi. Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, shayxulislom unvonidan ba'zi vakolatlarni qisqartirib, davlat boshqaruvini o'z qo'liga oladi. Bir necha vaqtlardan buyon Qo'qonda shayxulislomlik qilayotgan Hakimxon To'ra va uning otasiga bu yoqmaydi. Ular o'rtasidagi ziddiyat kuchaya boradi va Hakimxon To'ra Qo'qondan chiqib ketadi. Keyinchalik, o'z asarida bu voqealarni batafsil yoritadi.

"Gapning qisqasi, amir Olimxon va amir Umarxon zamonida davlat ishlari bo'yicha ko'p maslahatlar Qiblagoh odam tomonidan amalga oshar edi. Shu sababli mansabdorlarning ko'pchiligi zotida bo'ladigan rashk va hasad otashi boshqa davlat ustunlari siynasi o'chog'ida gurkirab yonib, ayniqsa, bir nechta Shamrnaslli mal'unlar barisi o'z himmatini janob Qiblagoh odam va mening hayot daraxtzorimizning maqsadi hosildorlik mulki nihollarini chaqimchilik va tuhmat shamoli bilan so'ldirish, quritish va tagidan qulatish sari qaratdilar. Bizning e'tibor va ixtiyor arig'imizni tubanlik va mashaqqat tuprog'i bilan qorishtirish, davlat maslahati

² Худоёрхонзода. 2014. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). Тошкент: Фан ва технология

³ Niyoz Muhammad Xo'qandiy. 2010. Ibrat-ul-xavoqin. Toshkent: Turon zamin ziyo nashriyoti, 146-bet.

⁴ Muntaxab-ut tavorih. Muhammad Hakimxon To'ra. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010

jilovini o'zlarining qudrat qo'liga olish uchun kirishdilar”.

Ushbu misralardan anglashiladiki, Hakimxon To'ra Muhammad Alixon bilan ziddiyatlari shu voqealarda aks etadi. Hakimxon To'ra Muhammad Alixonning boshqaruv davrida biror o'rinda muvaffaqiyatga erishganini e'tirof qilmaydi. Qora bo'yoqlarda salbiy sifatlar bilan tilga oladi.

Biroq, ayni shu davrda Buxoroda yashab ijod etgan Qori Rahmatulloh VozeH o'zining “Tuhfat-ul-ahbob fiy tazkirat-ul-ashob” asarida Hakimxon To'radan farqli ravishda Muhammad Alixon shaxsiyatiga ijobiy tarzda yondashadi.

“Xon” taxallusi, oliy darajadagi nomi Muhammad Alixon, Xo'qand xonidir.⁵ Ro'zgor (zamonasining) yagonasi va davrining nodiri erdi. Chunonchi, o'ttiz ikki hunarda mashhurdirki, jumladan zargarlik, mo'zaduzlik (etikdo'zlik), sarrojlik (egar-jabduq tayyorlovchi) va boshqalarda kamoli vahj yuzasidan yuqori daraja bilar erdi”

Rahmatulloh VozeHning Amir Nasrulloxon zamonida yashab, Muhammad Alixon haqida haqiqatni ro'y-rost yoza olgani tahsinga sazovor.

Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo'qon xonligida olib borgan siyosati xalqning qattiq tanqidiga uchraydi. Shunday voqealardan biri haqida Mirzo Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiy o'zining “Ansob us- salotin va tavorix ul- havoqin” asarida shunday tasvirlaydi:

“ Shul asnoda amir Bahodirxon xursandlig' qilib, Mirzo Jo'naydillo, Maxdum Hoziq mullaqabkim, shayxulislom Hirotiyning o'g'illari erdi, amiri Buxoroga kecha-kunduz hamnishin erdilar, ziyoda gustoh ekanlar, amir farmoyish qildikim, “Bizni bu safardin bo zafar kelganimizga bir fard bayt mashq qilib, bir nimarsa ayting”, - dedilar. Darhol bu baytni o'qudilarkim:

Nazmi Hoziq:

Buri anbor zadi xud az modemat,

Libosi to ba devoni qiyomat. (Mazmuni: O'z qaddingga la'natlardan shunday bir libos tikib kiyingki, u libos ustingda qiyomatgacha qoladi.)

Amirning g'iyozida jahli kelib, rangida qatra qon qolmadi. To o'rdasiga doxil bo'lgunchalik so'zlamadi.

Qazoro bir kun amir buyurgan Dushaboy nomlig' o'g'ri erdi, bir odamni kasal suratda qilib oldilariga olib keldi: - “Taqsir, munga doru bering, kasal bo'lubdur”, deb. Shul kecha yotib, boshlarini olib va andin chiqib Eshon Shofening boshlarini olib, kechalab amiri Buxoroga manzur qildi ersa, in'om-ehson bolonihoyalar sarafroz ayladi ”.

Hoziq Amir Nasrulloxonga aytgan bayti o'ta tanqidiy va istehzoli ohangga ega bo'lib, amirga nisbatan yashirin la'natni anglatadi: “ Sen ustiga shunday lan'at libosini kiydingki, bu libosdan qiyomatga qadar qutulolmaysan”. Hoziqning bunday ochiq va dalil gapirishi hamda bunday keskin jumlası amir g'azabini keltirgan, lekin hech narsa deya olmagan. Hoziq ketganidan so'ng, orqasidan qotil yuborib, uni o'ldirgan. Dushaboy nomli o'g'ri Hoziq va bir necha kishining boshini amirga taqdim etgan.

Xulosa

XIX asrning birinchi yarmi Movarounnahr tarixida siyosiy beqarorlik, harbiy mojarolar va madaniy uyg'onish bilan ajralib turadi. Bu davrning markaziy siyosiy shaxslaridan biri, Qo'qon xonligining hukmdori Muhammad Alixon o'z faoliyati va shaxsiyati bilan nafaqat

⁵ Tuhfat-ul-ahbob fiy tazkirat-ul-ashob. – Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2011. 21- bet

tarixiy, balki madaniy va adabiy manbalarda ham muhim o‘rin egallagan. Muhammad Alixonning hokimiyatga kelishi yoshligida — atigi 14 yoshida yuz bergan bo‘lsa-da, u qisqa muddatda o‘z irodasini namoyon eta boshlaydi. Uning siyosiy faoliyati ichki islohotlar, harbiy yurishlar va tashqi aloqalarni mustahkamlash yo‘nalishida kechgan. Qo‘qon xonligining hududiy kengayishi aynan Muhammad Alixon yurishlari natijasida yuz bergan, bu esa unga “G‘oziy” unvonini olib kelgan. Muhammad Alixonning shaxsiyati tarixiy manbalarda turlicha baholangan. “Tarixi Shohruhiy” kabi asarlarda u jasur, siyosiy yetakchilik fazilatlariga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan hukmdor sifatida tasvirlangan. Hakimxon To‘ra “Muntaxab ut-tavorix” asarida esa Muhammad Alixon salbiy qahramon sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu munosabat shaxsiy ziddiyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Amir Nasrullohxonning Qo‘qon xonligiga qarshi amalga oshirgan harbiy-siyosiy harakatlari bugungi kungacha adabiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan keskin tanqid ostiga olinib, u shu voqealar bilan bog‘liq salbiy tarixiy baholardan xoli bo‘la olmayapti. Bu omilar esa bu hukmdorlarning shaxsiyatini chuqurroq o‘rgganishga, tahlil etishga undaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. NiyozMuhammad Xo‘qandiy. 2010. Ibrat-ul-xavoqin. Toshkent: Turon zamin ziyo nashriyoti.
2. Is‘hoqxon to‘ra Ibrat. 2005. Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma‘naviyat.
3. Мирза Олим Мушриф. 1993. Ансоби-с-салотин ва тавориху-л-ҳавоқин. Тошкент: Фан нашриёти.
4. Mirzo Olim Maxdum Hoji. 2009. Tarixi Turkiston. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti
5. Худоёрхонзода. 2014. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). Тошкент: Фан ва технология.
6. Bobobekov H. Qo‘qon xonligi tarixining dolzarb muammolari. – Qo‘qon: Ilmiy anjuman materiallari, 2022.
7. Alimov H. Movarounnahr siyosiy hayoti XIX asrda. Toshkent: Sharq, 1999.
8. Хамроева, Орзигул. "Роль комплексов Фитрата в развитии текстологии начала XX века." Каталог диссертаций и авторефератов 1.1 (2024): 1-154.
9. Jalolovna, H. O. (2022). Improvement of the Science of rhyme in treatises of the timurid period. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
10. HAMROYEVA, O. “DEBOCHA” DAGI SAJ’NING POETIK VAZIFASI. MUHAMMAD RIZO OGHIYNING O ‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O ‘RNI, 187.
11. Hamroyeva, O. THE ARTISTIC PURPOSE OF ALISHER NAVOIY’S RHYME. Türkoloji, (120), 63-84.